Tibbiy kimyo darslarida talabalarning klinik tafakkurini rivojlantirish usullari	606
<i>Xolmurodova D. K., Safarova N. S.</i>	
Intellektual avlod – sog'lom jamiyat poydevori: tibbiyot talabalarining o'quv jarayonida kommunikativ kompetentligiga ta'sir etuvchi psixologik omillar.....	610
<i>Tursunbekova Nozima</i>	
Sportning voleybol turi bo'yicha talabalar o'rtasida musobaqalar tashkil etish va o'tkazishda raqamli texnologiyalardan foydalanish	613
<i>Roziqov Normurod Elmonovich</i>	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlari direktorlarining axborot kompetensiyasini rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari	618
<i>Xalilayev Batirjon Taxirovich</i>	
Inklyuziv ta'lim sharoitida alohida yordamga muhtoj bolalar integratsiyasi va korreksiyasi.....	622
<i>Olimova Nodirabegim Ibroximjon qizi, Sulaymonova Shahnoza Alisher qizi</i>	
Sportning gandbol turi bo'yicha talabalar o'rtasida musobaqalar tashkil etish va o'tkazish texnologiyalarini takomillashtirish	626
<i>Berdiyev Jamshid Baxriddinovich</i>	
18–21 yoshdagi talaba futbolchilarning musobaqa faoliyati jarayonida hujum harakatlarining miqdoriy va sifat ko'rsatkichlari	631
<i>Djemilov Temur Rasimovich</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining jismoniy tarbiya darslarida harakatli o'yin vositalari orqali sog'lomlashtiruvchi mashg'ulotlar samaradorligining ahamiyati.....	636
<i>Eshpo'latova Dilnoza Mamaniyoz qizi</i>	
Ota-ona bilan munosabatlarning maktabgacha yoshdagi bolalarning rivojlanishiga ta'siri.....	641
<i>Izaitullayeva Lazokat Eshimboyevna</i>	
Yosh futbolchilarning jismoniy tayyorligini oshirishda kompleks mashg'ulot tizimining samaradorligi.....	646
<i>Zaripova Farida Abdullayevna, Kamoliddinov Sharif Kamoliddin o'g'li</i>	
Boshlang'ich tayyorgarlik bosqichida sport gimnastikasi mashg'ulotlarini rejalashtirishning ilmiy-uslubiy asoslari.....	650
<i>Mirzayev Dilshod Xamidovich</i>	
Mahalla – “jonli muzey”: 6–7 yoshli bolalarda milliy g'ururni lokal identifikatsiya orqali kuzatish modeli.....	654
<i>Omondavlatova Diyora Otabekovna</i>	
Yengil dizatriyal bolalarda nutqning bo'g'in tuzilishi va uning shakllanish xususiyatlari.....	658
<i>Pardayeva Muxlisa Furqat qizi</i>	
Ochilmagan bo'z qalblar hazor.....	662
<i>Eshpulatova Saodat Maxmatovna</i>	



Speaking Fluency Development Based on CEFR Linguistic.....	665
Abdullayeva Charos Farkhodovna	
Integrating Visual-Based Activities in English Lessons for Primary School Pupils	670
Ataullayev Fazliddin	
Axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishning boshlang'ich ta'lim sifat va samaradorligiga ta'siri	674
Bovanova Umida Abdurahobovna, Ashurova Dildora Baxtiyor qizi	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'quv faoliyatini rivojlantirishda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining roli	679
Bovanova Umida Abdurahobovna, Radjabova Gulchexra Xalbayevna	
Lotin tilini o'qitishda metodlarning qo'llanilishi va uning ahamiyati	683
Eshmurodova Shirin Oybekovna	
Nutqiy kompetensiyani integratsion o'qitishda yangi metodlari va usullari	686
Fayzullayev Sarvar Ibrohim o'g'li	
Talabalarda affilativ motivatsiyani rivojlantirishning o'ziga xos xususiyatlari va komponentlari	689
Omonova Nilufar Omon qizi	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida ta'lim samaradorligini oshirishda gamifikatsiya elementlaridan foydalanishning o'rni	694
Ovxunov Iqboljon Abdunabiyeovich, Qodirova Sarvinoz Bahodir qizi	
Tikuv texnologiyalari asosida o'quvchilarning amaliy topshiriqlar bajarish ko'nikmalarini rivojlantirish	698
Qulmamatova Xurshida Abduxamidovna	
Bo'lajak muhandislarning xorijiy til bilish ko'nikmalarini rivojlantirishda individual va differensial yondashuvlar uyg'unligi	702
Qurbonova Nafisa Saidjonovna	
Tárbiya párin oqítw arqalı oqíwshlardín kreativ qábiletin rawajlandırıw.....	706
Reymova Gulaim	
Mirishkor toponimlarining leksik-semantik xususiyatlari	710
Ro'ziyeva Hilola Fayzulla qizi	
Taekvondochilarning jismoniy tayyorgarligini oshirish metodikasi	714
Saydaxmadov A'zamxon Valixonovich, Qosimova Nargizaxon Rustamxon qizi	
The Role of Music in Human Spiritual Development and Educational Significance.....	717
Shokirkhonov Bakhtiyorxon Botirkhonovich	
Boshlang'ich ta'limda tabiatga ongli munosabatni shakllantirishning nazariy metodologik asoslari.....	722
Sayfedinova Dildora Ikramiddinova	
Gematologik-onkologik kasalliklarga chalingan o'quvchilar uchun gospiatal maktablarida ta'lim jarayonini tashkil etish	726
Isamuxamedova Dildora Raxmatillayevna, Qayumova Sabrina To'liqin qizi	
Neologizmlar – badiiy matnda uslubiy vosita sifatida	730
Ibragimova Shoira Normuminovna	
Optimisation of Technical and Physical Potential in the Implementation of the Rotational Method of Pushing the Core.....	733
Tajimbetov Anvar Tengelbayevich	
Magistrlarning ijodiy salohiyatini rivojlantirish – kasbiy faoliyatda o'z-o'zini shakllantirish omili sifatida.....	736
Turmatov Jaloliddin Raxmatullayevich	
Raqamli ta'lim muhitida bo'lajak o'qituvchilarda informatsion-analitik kompetentlikni rivojlantirish modeli	743
Usmonova Kamola Erkinovna	
Bo'lajak chet tili o'qituvchilarining ijtimoiy lingvistik kompetensiyasini rivojlantirish mexanizmlari.....	749
X. A. Suyunova	
Tinglab tushunish kompetensiyasini rivojlantirishda autentik materiallarning o'rni	752
Xudoyberdiyeva Zumrat Xudayberdiyevna	
Motivatsiya – inson faoliyatini harakatga keltiruvchi psixologik omil sifatida	756
Yo'ldoshev Javlon Ablanazar o'g'li	

Цифровые технологии и искусственный интеллект в обучении иностранным языкам: теоретико-методологический анализ	760
<i>Абидова М. И., Абидова Д. М.</i>	
Сюжетно-ролевая игра как способ психоэмоционального развития детей дошкольного возраста, находящихся на длительном лечении.....	764
<i>Амитова Майисия Рахмателлаевна</i>	
Эффективные приемы презентации лексики на уроках иностранного языка	767
<i>Гилязиева Насиба Михайловна</i>	
Речевые действия в методике формирования коммуникативной компетенции при обучении РКИ...	770
<i>Ислямова Сония Юнусовна</i>	
Трансформация ценностей, связанных с физической активностью, у представителей разных поколений: результаты современных исследований	779
<i>У. Ш. Салимов</i>	

BO'LAJAK MUHANDISLARNING XORIJIY TIL BILISH KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISHDA INDIVIDUAL VA DIFFERENSIAL YONDASHUVLAR UYG'UNLIGI

Qurbonova Nafisa Saidjonovna

Buxoro davlat texnika universiteti

O'zbek va xorijiy tillar kafedrası ingliz tili o'qituvchisi

Annotatsiya: Maqolada bo'lajak muhandislarning xorijiy til ko'nikmalarini rivojlantirishda individual va differensial yondashuvlarning integratsiyalashgan qo'llanilishi masalasi o'rganilgan. Tadqiqotning maqsadi muhandislik ta'limida talabalarning individual xususiyatlari va guruh differentsiatsiyasini birgalikda hisobga oluvchi pedagogik yondashuvni ishlab chiqishdan iborat. Nazariy tahlil shuni ko'rsatdiki, individual yondashuv har bir talabani kognitiv qobiliyatlari, psixologik xususiyatlari va o'rganish uslubiga e'tibor beradi, differensial yondashuv esa talabalarni muayyan mezonlar asosida guruhlarga ajratish orqali ta'lim samaradorligini oshiradi. Ikki yondashuvning uyg'unligi texnik xorijiy tilni o'qitishda yanada moslashuvchan va samarali pedagogik jarayonni ta'minlaydi. Maqolada zamonaviy metodologik asoslar, psixologik-pedagogik tamoyillar va amaliy tatbiq etish mexanizmlari tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: individual yondashuv, differensial ta'lim, xorijiy til, muhandislik ta'limi, shaxsga yo'naltirilgan ta'lim, kognitiv uslublar.

Abstract: The article examines the integrated use of individual and differential approaches in the development of foreign language skills of future engineers. The purpose of the study is to develop a pedagogical approach that takes into account students' individual characteristics and group differentiation in engineering education. Theoretical analysis has shown that the individual approach focuses on the cognitive abilities, psychological characteristics, and learning style of each student, while the differential approach increases the effectiveness of education by dividing students into groups based on specific criteria. The combination of the two approaches ensures a more flexible and effective pedagogical process in teaching a technical foreign language. The article analyzes modern methodological foundations, psychological and pedagogical principles, and mechanisms for practical implementation.

Key words: individual approach, differentiated education, foreign language, engineering education, person-centered education, cognitive styles.

Аннотация: В статье рассматривается вопрос комплексного использования, индивидуального и дифференцированного подходов в развитии языковых навыков будущих инженеров. Цель исследования – разработка педагогического подхода, учитывающего индивидуальные особенности учащихся и групповую дифференциацию в инженерном образовании. Теоретический анализ показал, что индивидуальный подход учитывает познавательные способности, психологические характеристики и стиль обучения каждого учащегося, в то время как дифференцированный подход повышает эффективность обучения за счёт разделения учащихся на группы на основе определённых критериев. Сочетание двух подходов обеспечивает более гибкий и эффективный педагогический процесс обучения техническому иностранному языку. В статье анализируются современные методологические основы, психолого-педагогические принципы и механизмы практической реализации.

Ключевые слова: индивидуальный подход, дифференцированное образование, иностранный язык, инженерное образование, личностно-ориентированное образование, когнитивные методы.

KIRISH

Zamonaviy globallashuv sharoitida muhandislik kadrlarining xorijiy til kompetensiyasi professional faoliyatning ajralmas qismi hisoblanadi. Xalqaro loyihalarda ishtirok etish, texnik hujjatlar bilan ishlash, xorijiy hamkorlar bilan muloqot qilish bugungi kunda har bir malakali muhandisdan talab qilinadi (Polyakov, 2020). Shu bilan birga, texnik oliy ta'lim muassasalarida xorijiy til o'qitish jarayonida talabalarning turli darajadagi tayyorgarlik, qobiliyat va motivatsiyaga ega ekanligi muammosi dolzarb bo'lib qolmoqda.



Pedagogik adabiyotlarda individual yondashuv tamoyillari keng yoritilgan bo'lsa-da (Унт, 2005; Якиманская, 2000), differensial ta'lim konsepsiyasi ham mustaqil yo'nalish sifatida rivojlangan (Осмоловская, 2005). Biroq, bu ikki yondashuvning uyg'un integratsiyasi, ayniqsa texnik xorijiy tilni o'qitish kontekstida, yetarli darajada tadqiq etilmagan.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Individual yondashuv pedagogikada uzoq tarixga ega bo'lib, Ya.A. Komenskiy, J.J. Russo, I.G. Pestalotsi kabi klassik pedagoglar asarlarida o'z ifodasini topgan. Zamonaviy talqinda individual yondashuv talabani shaxsiy xususiyatlarini, qobiliyatlarini, qiziqishlarini hisobga olgan holda ta'lim jarayonini tashkil etish sifatida tushuniladi (Унт, 2005).

I.S. Yakimanskaya (2000) shaxsga yo'naltirilgan ta'lim konsepsiyasida har bir o'quvchining sub'ektiv tajribasini e'tirof etish va rivojlantirishni asosiy tamoyil sifatida ko'rsatadi. Bu yondashuv talabani o'rganish uslubi, motivatsiya turi, kognitiv strategiyalarini chuqur tahlil qilishni talab etadi.

Xorijiy til didaktikasida individual yondashuv H.D. Brown (2007), J. Richards (2015) tadqiqotlarida keng yoritilgan. Brown shaxsga yo'naltirilgan ta'limni til o'rganishning tabiati, qobiliyati va sharoitlaridagi farqlarni e'tirof etuvchi paradigma sifatida belgilaydi.

Differensial ta'lim g'oyasi pedagogika tarixida J. Dewey, E. Claparède ishlarida paydo bo'lgan. Zamonaviy talqinda differensial yondashuv talabalarni muayyan mezonlar (qobiliyat, qiziqish, tayyorgarlik darajasi) bo'yicha guruhlariga ajratish va har bir guruh uchun moslashtirilgan ta'lim strategiyasini qo'llashni nazarda tutadi (Осмоловская, 2005).

I.M. Osmolovskaya (2005) differensial ta'limning uch asosiy turini ajratadi: ichki (bir sinf ichida), tashqi (maxsus sinflar) va profilga yo'naltirilgan.

Muhandislik ta'limida ko'proq ichki differensiatsiya qo'llaniladi. Xorijiy tajribada "differentiated instruction" (farqlangan ta'lim) C. Tomlinson (2001) ishlarida tizimli ishlab chiqilgan. Tomlinson mazmun, jarayon va natijani farqlash tamoyillarini taklif etadi, bu texnik xorijiy tilni o'qitishda qo'llash uchun muhim ahamiyatga ega. Muhandislik yo'nalishlari uchun xorijiy tilni o'qitish ESP (English for Specific Purposes) yoki LSP (Language for Specific Purposes) doirasida ko'rib chiqiladi (Dudley-Evans & St. John, 1998). Bu yondashuv til o'rganishni professional kontekst va ehtiyojlar bilan chambarchas bog'laydi.

T. Hutchinson va A. Waters (1987) ESPni ehtiyojlarga asoslangan yondashuv sifatida tavsiflab, talabalarning target needs (professional faoliyatda qanday til zarur) va learning needs (o'rganish jarayonidagi ehtiyojlar) o'rtasidagi muvozanatni ta'kidlaydi. Postsovet tadqiqotchilar (Поляков, 2020; Образцов, 2005) texnik xorijiy tilni o'qitishda professional-kommunikativ kompetensiyani shakllantirishni asosiy maqsad sifatida belgilaydi. Bu kompetensiya til bilimi, kasbiy bilim va kommunikativ ko'nikmalar sintezini talab qiladi. Pedagogik adabiyotlarda individual va differensial yondashuvlar ko'pincha alohida ko'rib chiqiladi, ammo ularning o'zaro bog'liqligi va to'ldiruvchanligi ham aks ettirilgan (Селевко, 2005). G.K. Selevko shaxsga yo'naltirilgan texnologiyalar tizimida differensiatsiyani individuallashtirish vositalaridan biri sifatida ko'rsatadi.

Zamonaviy tadqiqotlar (Hutmacher, 2019; Tomlinson, 2017) moslashuvchan ta'lim (adaptive learning) konsepsiyasini taklif etadi, bunda differensial guruhlar ichida individual yondashuv qo'llaniladi. Bu ikki darajali tizim: makrodarajada – differensiatsiya, mikrodarajada – individuallashtirish. Xorijiy til didaktikasida bu integratsiya CLIL (Content and Language Integrated Learning) va blended learning yondashuvlarida namoyon bo'ladi (Coyle et al., 2010). Texnik universitetlarda bu yondashuvlar professional mazmun va tilni o'qitishni birlashtirish imkonini beradi. Tahlil shuni ko'rsatdiki, individual va differensial yondashuvlar alohida-alohida keng tadqiq etilgan bo'lsa-da, ularning muhandislik ta'limida xorijiy tilni o'qitish kontekstidagi uyg'unligini ta'minlovchi yaxlit metodologik tizim yetarli darajada ishlab chiqilmagan. Ayniqsa, O'zbekiston oliy ta'lim tizimi sharoitida bu masala chuqur o'rganishni talab etadi.

TADDIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu nazariy tadqiqotda quyidagi metodlar qo'llanilgan:

- Nazariy tahlil:** Pedagogika, psixologiya va lingvodidaktika bo'yicha ilmiy adabiyotlarni tizimli tahlil qilish, 2000-2024-yillar oralig'ida nashr etilgan 50 dan ortiq ilmiy manbalar o'rganildi.
- Qiyosiy tahlil:** Individual va differensial yondashuvlarning nazariy asoslari, tamoyillari va tatbiq etish mexanizmlarini qiyosiy baholash.
- Modellashtirish:** Ikki yondashuvning integratsiyalashgan qo'llanilishi modelini nazariy jihatdan ishlab chiqish.

4. **Umumlashtirish:** Xorijiy va mahalliy pedagogik tajribalarni umumlashtirish hamda ularni muhandislik ta'limi kontekstiga moslashtirish.

TAHLIL VA NATIJALAR

Qiyosiy tahlil quyidagi asosiy farqlarni aniqladi: individual yondashuv har bir talabaniy noyob xususiyatlariga yo'naltirilgan bo'lib, u quyidagi aspektlarni qamrab oladi: kognitiv uslublar (vizual, audial, kinestetik), o'rganish sur'ati va chuqurligi, motivatsiya turlari (ichki, tashqi, integratsiyalashgan), shaxsning psixologik tipi (introvert, ekstrovert) hamda oldindan mavjud til tajribasi. Differensial yondashuv talabalarni guruhlariga ajratish va har bir guruh uchun maxsus strategiya ishlab chiqishni nazarda tutadi: til tayyorgarlik darajasi bo'yicha (A1–C1), professional yo'nalish bo'yicha (mexanika, qurilish, IT), o'rganish maqsadlari bo'yicha (akademik, professional) va o'zlashtirish qobiliyati bo'yicha (yuqori, o'rta, past). Asosiy farq shundaki, individual yondashuv talabalar soniga teng ta'lim variantlarini talab qiladi (nazariy jihatdan), differensial yondashuv esa cheklangan sonli guruhlar uchun strategiyalarni ishlab chiqadi, bu amaliy jihatdan maqsadga muvofiqroqdir.

Tadqiqot natijalariga ko'ra, samarali integratsiyalashgan model quyidagi tamoyillarga asoslanishi kerak:

- ierarxiklik tamoyili – birinchi bosqichda differensiatsiya (guruhlarini shakllantirish), ikkinchi bosqichda individuallashtirish (guruh ichida), bu ikki darajali tizim resurslarni optimal taqsimlash imkonini beradi;
- moslashuvchanlik tamoyili – guruhlar statik emas, dinamik bo'lishi kerak, talabaniy rivojlanishiga qarab u bir guruhdan ikkinchisiga o'tishi mumkin, shu bilan birga har bir talabaniy individual traektoriyasi doimiy monitoring qilinadi;
- kontekstuallik tamoyili – muhandislik ta'limining o'ziga xos xususiyatlari, jumladan professional terminologiya, texnik matnlar bilan ishlash va kasbiy kommunikatsiya vaziyatlari hisobga olinadi;
- texnologiklik tamoyili – zamonaviy raqamli vositalar (LMS, adaptive platforms, AI-powered tools) individual va guruh ishini qo'llab-quvvatlashi kerak;
- diagnostiklik tamoyili – doimiy monitoring va baholash tizimi talabalarning progress dinamikasini kuzatish va o'z vaqtida o'zgartirishlar kiritish imkonini beradi.

Integratsiyalashgan yondashuvning samarasini baholash uchun o'rganish natijalari, motivatsion ko'rsatkichlar, psixologik qulaylik va pedagogik samaradorlik singari mezonlar asosida baholash maqsadga muvofiq. Lekin bu jarayonda bir qator qiyinchiliklar va yechimlar mavjud bo'lib, ular quyidagilardan iborat:

- katta guruhlar (30+ talaba) – kichik guruhlar ichida differensiatsiya, raqamli vositalardan foydalanish hamda talabalarni o'zaro o'qitish (peer instruction) orqali bartaraf etiladi;
- o'qituvchilarning malaka yetishmovchiligi – tizimli kadrlar tayyorlash, metodologik qo'llanmalar va mentor–mentee dasturlari orqali hal qilinadi;
- resurslar cheklanganligi – bepul raqamli resurslardan foydalanish, ochiq ta'lim resurslari (OER) hamda talabalar tomonidan yaratilgan materiallarni jalb etish orqali kamaytiriladi;
- baholash murakkabligi – rubrika asosidagi kriteriyalar, portfolio baholash hamda formativ va summativ baholash kombinatsiyasi orqali optimallashtiriladi.

Integratsiyalashgan yondashuvning to'g'ri tatbiq etilishi natijasida akademik yutuqlar oshadi, ya'ni barcha talabalar o'zlarining individual imkoniyatlari chegarasida maksimal rivojlanadi, professional tayyorgarlik mustahkamlanadi, muhandislar xalqaro standartlarga mos til kompetensiyasiga ega bo'ladi, shaxsiy rivojlanish ta'minlanadi, talabalar o'z-o'zini boshqarish va o'z-o'zini baholash ko'nikmalarini egallaydi hamda kasbiy moslashuvchanlik shakllanadi, ya'ni ular xilma-xil professional vaziyatlarda samarali kommunikatsiya qilish qobiliyatiga ega bo'ladi. Tadqiqot bo'lajak muhandislarning xorijiy til ko'nikmalarini rivojlantirishda individual va differensial yondashuvlarning integratsiyalashgan qo'llanilishi zarurligini asoslab berdi.

Nazariy tahlil va metodologik sintez asosida quyidagi xulosalarga kelindi:

- individual va differensial yondashuvlar bir-birini istisno qiluvchi emas, balki to'ldiruvchi pedagogik tamoyillardir, individual yondashuv har bir talabaniy noyobligini e'tirof etsa, differensial yondashuv ushbu xilma-xillikni boshqarish uchun amaliy mexanizmlarni taqdim etadi;
- muhandislik ta'limida xorijiy til o'qitish professional kontekstning o'ziga xos talablari tufayli maxsus yondashuvni talab etadi, ESP/LSP doirasida individual va differensial tamoyillarni qo'llash professional-kommunikativ kompetensiyaning samarali shakllanishini ta'minlaydi;



- integratsiyalashgan yondashuvning samaradorligi ikki darajali tizimga asoslanadi, ya'ni makrodarajada talabalar diagnostika asosida differensial guruhlariga ajratiladi, mikrodarajada esa har bir guruh ichida individual traektoriyalar loyihalashtiriladi;
- zamonaviy raqamli texnologiyalar va adaptive platforms integratsiyalashgan yondashuvni amaliy jihatdan amalga oshirish uchun zarur instrumental bazani taqdim etadi, chunki ular bir vaqtning o'zida ham differentsiatsiya, ham individuallashtirish imkoniyatlarini kengaytiradi;
- ushbu yondashuvning muvaffaqiyatli amalga oshirilishi sistemali yondashuvni talab etadi, ya'ni diagnostika tizimi, moslashuvchan guruhlarini shakllantirish, individual traektoriyalarni loyihalash, turli pedagogik texnologiyalarni qo'llash va doimiy monitoringni o'z ichiga oladi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, bo'lajak muhandislarning xorijiy til bilish ko'nikmalarini rivojlantirishda individual va differensial yondashuvlarning uyg'unligi zamonaviy ta'limning sifati va samaradorligini ta'minlovchi muhim omil hisoblanadi. Bu integratsiya har bir talabaning potensialini maksimal darajada ro'yobga chiqarish, shu bilan birga ta'lim jarayonini amaliy jihatdan boshqarish mumkin bo'lgan darajada saqlash imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Brown, H. D. (2007). Principles of Language Learning and Teaching. Pearson Education.
2. Coyle, D., Hood, P., & Marsh, D. (2010). CLIL: Content and Language Integrated Learning. Cambridge University Press.
3. Dudley-Evans, T., & St. John, M. J. (1998). Developments in English for Specific Purposes. Cambridge University Press.
4. Hutchinson, T., & Waters, A. (1987). English for Specific Purposes: A Learning-Centered Approach. Cambridge University Press.
5. Hutmacher, W. (2019). Differentiated instruction in higher education. International Journal of Educational Research, 94, 125-138.
6. Richards, J. C. (2015). Key Issues in Language Teaching. Cambridge University Press.
7. Tomlinson, C. A. (2001). How to Differentiate Instruction in Mixed-Ability Classrooms. ASCD.
8. Tomlinson, C. A. (2017). How to Differentiate Instruction in Academically Diverse Classrooms. ASCD.
9. Образцов, П. И. (2005). Профессионально-ориентированное обучение иностранному языку на неязыковых факультетах вузов. Орёл: ОГУ.
10. Осмоловская, И. М. (2005). Организация дифференцированного обучения в современной общеобразовательной школе. Москва: Институт практической психологии.
11. Поляков, О. Г. (2020). Профессионально-ориентированное обучение английскому языку в высшей школе: современное состояние и перспективы. Иностранные языки в школе, 6, 2-9.
12. Селевко, Г. К. (2005). Энциклопедия образовательных технологий (Том 1). Москва: НИИ школьных технологий.
13. Унт, И. Э. (2005). Индивидуализация и дифференциация обучения. Москва: Педагогика.
14. Якиманская, И. С. (2000). Технология личностно-ориентированного образования. Москва: Сентябрь.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №2(2)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.